




Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-avgust)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yil yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 13 171,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 109,2 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (95,2 %)ni tashkil etdi.



B-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **S**-Ishlab chiqaradigan sanoat
D-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 9,7 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining - 24,5 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning -6,6 % ga o'sishi kuzatildi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 22,5 % ga pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 123,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yanvar- avgust oylari, % da)




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Chaqiq tosh, ming t.	197,4	139,3	- 58,1




Ishlab chiqaradigan sanoat
Yanvar-avgust oylarida



2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 535,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,2 % ini tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, %da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2020- yilning yanvar- avgust oylarida - 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 17,4 % (17,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 16,2 % (13,9 %) va quyi texnologiyalisi – 61,3 % (63,1 %)ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



Quyi texnologiyali



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 20,5 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 35,6 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,9 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,5 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 98,3 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,3 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 40,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,9 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,7 %)ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da


2021- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 24,5 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 1,3 martaga o'sgan), 116,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (1,6 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Yumshoq bug'doy va spelta uni



O'simlik yog'i (tozalangan)



Aroq




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	23,4	26,0	2,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	167,0	206,1	39,1
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	115,4	509,9	394,5
Vino, ming litr	582,2	512,0	-70,2
Un, ming tonna	118,0	116,1	-1,9
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	19,7	24,5	4,8



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-avgust oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 393,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (3,0 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 24,5 foizga oshganligi kuzatildi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yanvar-avgust oylari, % da)






Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	57,2	47,5	-9,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	50,3	42,7	-7,6



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 120,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yanvar-avgust oylari, % da)

2020- yil % da

2021- yil % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	37,3	67,0	29,3
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	8,9	26,9	18,0
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	11,8	16,6	4,8
To'qimachilik chiqindilari, tonna	27,9	39,7	11,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 79,6 % ga, oqava suvlarni shlami 3,0 martaga hamda qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 40,7 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 087,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 7,9 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 61,4 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,9 % (2020- yil yanvar-avgust oyida 5,6 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 40,3 % ni, shuningdek, Urgut tumani 12,0 % ni, Samarqand tumani 10,5 % ni, Toyloq tumani 7,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o'sish sur'ati (107,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Paxtachi (301,6 %), Qo'shrabot (224,4 %), Toyloq (153,4 %), Kattaqo'rg'on (154,2 %), Nurobod (121,2 %) hamda Narpay (115,0 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-avgust oyida



	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	3259,8	40,3	100,4		217,9	2,7	115,0
Samarqand sh.				Narpay			
	169,7	2,1	100,8		120,4	1,5	77,0
Kattaqo'rg'on sh.				Payariq			
	112,5	1,4	68,8		226,0	2,8	82,9
Oqdaryo				Pastdarg'om			
	227,6	2,8	112,3		172,5	2,1	301,6
Bulung'ur				Paxtachi			
	449,6	5,6	96,4		852,9	10,5	117,4
Jomboy				Samarqand			
	191,5	2,4	111,4		149,7	1,9	121,2
Ishtixon				Nurobod			
	319,9	4,0	154,2		968,0	12,0	103,9
Kattaqo'rg'on				Urgut			
	38,8	0,5	224,4		610,7	7,6	153,4
Qo'shrabot				Toyloq			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,9 % ni, shuningdek, Urgut tumani 14,4 % ni, Samarqand tumani 8,5 % ni hamda Jomboy tumani 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Qo'shrabot (310,5 %), Paxtachi (222,2 %), Toyloq (206,7 %), Samarqand (144,9 %) hamda Oqdaryo (194,6 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha noziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-avgust oylarida

















	Mird. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mird. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
Samarqand sh.	2076.6	41.9	98.5	Narpay	127.9	2.6	115.5
Kattaqo'rg'on sh.	95,5	1,9	82,7	Payariq	53,3	1,1	55,3
Oqdaryo	75,0	1,5	135,2	Pastdarg'om	137,5	2,8	83,9
Bulung'ur	104,2	2,1	97,8	Paxtachi	86,0	1,7	222,7
Jomboy	296,2	6,0	84,2	Samarqand	419,0	8,5	136,5
Ishtixon	104,8	2,1	88,8	Nurobod	61,6	1,2	87,8
Kattaqo'rg'on	136,7	2,8	106,9	Urgut	712,5	14,4	100,2
Qo'shrabot	23,4	0,5	310,5	Toyloq	444,5	9,0	194,6

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 37,3 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 13,7 % ni, Urgut tumani esa 8,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Paxtachi tumani (465,2 %), Kattaqo'rg'on tumani (230,1 %) hamda Payariq tumanida (111,9 %) qayd etildi.



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	1107,5	36,7	106,3		90,0	3,0	114,4
Samarqand sh				Narpay			
	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	74,2	2,5	140,3		67,1	2,2	111,9
Kattaqo'rg'on sh.				Payariq			
	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	37,5	1,2	34,7		88,5	2,9	81,5
Oqdaryo				Pastdarg'om			
	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	117,9	3,9	131,7		86,5	2,9	465,2
Bulung'ur				Paxtachi			
	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	144,6	4,8	138,8		413,5	13,7	104,8
Jomboy				Samarqand			
	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	86,7	2,9	160,9		88,1	2,9	165,0
Ishtixon				Nurobod			
	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	183,2	6,1	230,1		255,6	8,5	116,1
Kattaqo'rg'on				Urgut			
	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	15,4	0,5	157,8		158,4	5,3	99,0
Qo'shrabot				Toyloq			



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-avgust oylarida

SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5 382,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 40,7 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2021- yilning yanvar-avgust oylarida

	Mlrd. soʻm			Ulushi %da			Oʻsishi %da		
	13 171,8			100,0			109,2		
	Viloyat								
	Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		
	6032,8	45,8	110,7		348,6	2,6	104,9		
	Samarqand sh.				Narpay				
	Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		
	215,2	1,6	82,4		227,2	1,7	114,0		
	Kattaqoʻrgʻon sh.				Payariq				
	Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		
	266,7	2,0	110,1		469,3	3,6	101,5		
	Oqdaryo				Pastdargʻom				
	Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		
	241,1	1,8	101,9		221,3	1,7	128,2		
	Bulungʻur				Paxtachi				
	Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		
	1501,0	11,	96,7		1115,7	8,5	114,1		
	Jomboy				Samarqand				
	Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		
	275,3	2,1	107,2		165,0	1,3	113,5		
	Ishtixon				Nurobod				
	Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		
	361,0	2,7	103,6		1076,4	8,2	106,8		
	Kattaqoʻrgʻon				Urgut				
	Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	Oʻsishi %da		
	42,4	0,3	105,4		612,8	4,7	132,6		
	Qoʻshrabot				Toyloq				




Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Toyloq (2020- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan 132,4 %), Paxtachi (125,4 %), Samarqand (115,0 %), Nurobod (112,7 %) hamda Samarqand shahri (109,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, % da

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati,% da






**Viloyat jami sanoat
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da**

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,8 % ni), hamda Jomboy (11,4 %), Samarqand (8,5 %), Urgut (8,2 %), Toyloq (4,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Qo'shrabot (0,3 %) hamda Nurobod (1,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (10 879,8 ming so'm), Jomboy tumani (8 485,1 ming so'm) va Samarqand tumani (4 332,8 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 321,9 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Qo'shrabot (316,0 ming so'm), Payariq (888,7 ming so'm) Nurobod (1 075,4 ming so'm), va Bulung'ur (1 266,9 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.

SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar-avgust oylarida, ming so'm



	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	3321,9		2039,7		
Viloyat					
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	10879,8	5878,9		1612,3	1007,8
	Samarqand sh.			Narpay	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2367,2	1866,7		888,7	470,8
	Kattaqo'rg'on sh.			Payariq	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1642,5	693,0		1298,5	625,4
	Oqdaryo			Pastdarg'om	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1266,9	1195,9		1511,8	1178,0
	Bulung'ur			Paxtachi	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	8485,1	2541,6		4332,8	3312,2
	Jomboy			Samarqand	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1061,3	738,2		1075,4	976,0
	Ishtixon			Nurobod	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1299,1	1151,1		2062,5	1854,8
	Kattaqo'rg'on			Urgut	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	316,0	289,7		2971,7	2961,7
	Qo'shrabot			Toyloq	



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**

2021- yilning yanvar-avgust oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 302,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,3 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur, Qoʻshrabot va Nurobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kattaqoʻrgʻon (87,7 %), Urgut (74,3 %) tumanlarida va Kattaqoʻrgʻon shahar (74,5 %) shahrida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, eng kichik ulush Narpay (18,4 %), Ishtixon (21,3 %), Samarqand shahar (23,7 %) va Toyloq (31,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 8 060 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 727 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,7 %ni) Samarqand shahriga, 1181 tasi (14,7 %) Urgut tumaniga, 770 tasi (9,6 %) Samarqand tumaniga, 740 tasi (9,2 %) Pastdarg'om tumaniga, 498 tasi (6,2 %) Ishtixon tumaniga, 377 tasi (4,7 %) Jomboy tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




2021- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 1443 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 201 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 13,9 %) Urgut tumanida, 187 tasi (13,0 %) Samarqand shahrida, 161 tasi (11,2 %) Samarqand tumanida, 153 tasi (10,6 %) Pastdarg'om tumanida hamda 104 tasi (7,2 %) Kattaqo'rg'on tumanida tashkil etildi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalarini joylashgan hududlar 6 taligida Samarqand shahar (1 706 ta), Urgut (1157 ta), Samarqand (742 ta), Pastdarg'om (716 ta), Ishtixon (479 ta) va Jomboy (370 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalarini joylashgan shahar va tumanlar 6 taligini
(2021- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalarini joylashgan shahar va tumanlar 6 taligini
(2021- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalarini joylashgan hududlar 6 taligida Qo'shramot (147 ta), Nurobod (176 ta), Narpay (221 ta), Paxtachi (222 ta), Bulung'ur (298 ta) tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrida (289 ta) qayd etildi.

Sanoat statistikasi
Bo'limi
Tel.: (66) 235-06-80